


ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ВАЗИРЛИГИ
ТОШКЕНТ ТИББИЁТ АКАДЕМИЯСИ

2025

2011 йилдан чиқа бошлаган

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI



ВЕСТНИК ТАШКЕНТСКОЙ МЕДИЦИНСКОЙ АКАДЕМИИ

Тошкент



Выпуск набран и сверстан на компьютерном издательском комплексе

редакционно-издательского отдела Ташкентской медицинской академии

Начальник отдела: М. Н. Аслонов

Редактор русского текста: О.А. Козлова

Редактор узбекского текста: М.Г. Файзиева

Редактор английского текста: А.Х. Жураев

Компьютерная корректура: З.Т. Алюшева

Учредитель: Ташкентская медицинская академия

Издание зарегистрировано в Ташкентском Городском управлении печати и информации

Регистрационное свидетельство 02-00128

Журнал внесен в список, утвержденный приказом № 201/3 от 30 декабря 2013года

реестром ВАК в раздел медицинских наук

Рукописи, оформленные в соответствии с прилагаемыми правилами, просим направлять по адресу: 100109, Ташкент, ул. Фароби, 2, Главный учебный корпус ТМА,

4-й этаж, комната 444.

Контактный телефон: 214 90 64

*e-mail: rio-tma@mail.ru
rio@tma.uz*

Формат 60x84 1/8. Усл. печ. л. 9,75.

Гарнитура «Cambria».

Тираж 150.

Цена договорная.

Отпечатано на ризографе редакционно-издательского отдела ТМА.

100109, Ташкент, ул. Фароби, 2.

Вестник ТМА 2025

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ

Главный редактор

проф. А.К. Шадманов

Заместитель главного редактора

проф. О.Р.Тешаев

Ответственный секретарь

проф. Ф.Х.Иноятова

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ

акад. Аляви А.Л.

проф. Билалов Э.Н.

проф. Гадаев А.Г.

проф. Жае Вук Чои (Корея)

акад. Каримов Ш.И.

проф. Силина Т. (Украина)

акад. Курбанов Р.Д.

проф. Зуева Л. (Россия)

проф. Метин Онерчи (Турция)

проф. Ми Юн (Корея)

акад. Назыров Ф.Г.

проф. Нажмутдинова Д.К.

доц. Рахматуллин А.Р. (Россия)

проф. Саломова Ф.И.

проф. Трескач С. (Германия)

проф. Шайхова Г.И.

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОГО СОВЕТА

Дмн. Абдуллаева Р.М.

проф. Акилов Ф.О. (Ташкент)

проф. Аллаева М.Д. (Ташкент)

проф. Хамдамов Б.З. (Бухара)

проф. Ирискулов Б.У. (Ташкент)

проф. Каримов М.Ш. (Ташкент)

проф. Маматкулов Б.М. (Ташкент)

проф. Охунов А.О. (Ташкент)

проф. Парпиева Н.Н. (Ташкент)

проф. Рахимбаева Г.С. (Ташкент)

проф. Хамраев А.А. (Ташкент)

проф. Холматова Б.Т. (Ташкент)

проф. Шагазатова Б.Х. (Ташкент)

Ijodiy mashg'ulotlar – rasm chizish, musiqa, qo'l mehnati yoki bog'dorchilik bolaning ichki hissiyotlarini ifodalashga yordam beradi. Bugungi kunda nogiron bolalarda depressiyani oldini olish uchun ilg'or yondashuvlar ishlab chiqilgan. Raqamli va texnologik yondashuvlar Mobil ilovalar va virtual terapiya Depressiyani boshqarishga yordam beradigan interaktiv mobil ilovalar (meditatsiya, stress boshqarish, psixologik o'yinlar). Onlayn psixologik maslahatlar Uyda davolanish imkoniyatlarini kengaytirish. Raqamli platformalar orqali Imkoniyati cheklangan bolalar va ularning ota-onalari uchun qo'llab-quvvatlash guruhlari tashkil etish. Emotsional intellektni rivojlantirish dasturlari Bolalarni o'z his-tuyg'ularini tushunish va ifodalashga o'rgatish. Maxsus sport dasturlari [8] paralimpiya sport turlari, rehabilitatsiya mashg'ulotlari suzish, yoga va boshqa jismoniy faollik shakllari orqali depressiyani kamaytirish. Genetik tadqiqotlar orqali imkoniyati cheklangan bolalarning depressiyaga moyilligini aniqlash va erta profilaktika choralari ko'rish.

Xulosa qilib aytganda ota-onalar va g'amxorlik qiluvchilar depressiya va boshqa ruhiy kasalliklarga chalingan bolalar uchun qila oladigan eng muhim narsa ularni tinglash va qo'llab-quvvatlashdir. Nogiron bolalarni umumiy ta'limga integratsiya qilish jamiyat tomonidan qabul qilinishini osonlashtiradi va ularning maktab yillaridan keyin jamiyatga integratsiyalashuvini kuchaytiradi. Bunga erishish uchun jamiyat va institutsional darajada inklyuziv ta'lim siyosatini amalga oshirish zarur. Maktablar ixtisoslashtirilgan o'quv qo'llanmalari, yordamchi texnologiyalar va nogiron bolalarning noyob ehtiyojlarini qondira oladigan o'qitilgan xodimlar kabi zarur resurslar bilan jihozlanishi kerak. Uyda zaruriy o'zgarishlarni amalga oshirishda oilalarni qo'llab-quvvatlash uchun siyosat moliyaviy yordam va rag'batlantirishni ta'minlashi kerak. Bunga grantlar, past foizli kreditlar uyni moslashtirish uchun soliq imtiyozlari kiradi. Shifokor qanday davolanishni tavsiya etmasin, bolangiz davolanishini tashkil qilish uchun amaliy yordamingizga muhtoj bo'ladi. Ular sizning yordamingizga hissiy jihat-

dan ham muhtoj bo'lishadi, chunki ular o'zlariga nima bo'layotgani haqida sarosimaga tushishlari yoki xavotirlanishlari mumkin. Farzandingizga ko'p ijobiy e'tibor bering, ayniqsa uning tashvishlari va his-tuyg'ulari haqida gapiring va tinglang.

Adabiyotlar

1.Bhatia SK, Bhatia SC. Childhood and adolescent depression (<https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/17225707/>). Am Fam Physician. 2007;75(1):73-80. Accessed 11/8/2023.

2.N.S.Jo'rayev. N.Aliyehamda. TDPU. "O'smirlik davrida agressiv xulq-atvorni

3.Bitsko RH, Claussen AH, Lichstein J, et al. Mental Health Surveillance Among Children — United States, 2013–2019 (<https://www.cdc.gov/mmwr/volumes/71/su/su7102a1.htm>). MMWR Suppl. 2022;71(Suppl-2):1-42. Accessed 11/8/2023.

4.Child Mind Institute. What are the kinds of depression? (<https://childmind.org/article/what-are-the-kinds-of-depression/>) Last updated 2/16/2023. Accessed 11/8/2023.

5.Ghandour RM, Sherman LJ, Vladutiu CJ, et al. Prevalence and Treatment of Depression, Anxiety, and Conduct Problems in US Children (<https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/30322701/>). J Pediatr. 2019;206:256-267.e3. Accessed 11/8/2023.

7.Lothwell LE, Libby N, Adelson SL. Mental Health Care for LGBT Youths (<https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC7587912/>). Focus (Am Psychiatr Publ). 2020;18(3):268-276. Accessed 11/8/2023.

8.Bitsko RH, Claussen AH, Lichstein J, et al. Mental Health Surveillance Among Children — United States, 2013–2019 (<https://www.cdc.gov/mmwr/volumes/71/su/su7102a1.htm>). MMWR Suppl. 2022;71(Suppl-2):1-42. Accessed 11/8/2023.

Child Mind Institute. What are the kinds of depression? (<https://childmind.org/article/what-are-the-kinds-of-depression/>) Last updated 2/16/2023. Accessed 11/8/2023.

9.Daviss WB 2008. A review of co-morbid depression in pediatric ADHD: etiology, phenomenology, and treatment. J Child Adolesc Psychopharmacol, 18, 565–71. [DOI] [PMC free article] [PubMed] [Google Scholar]

10.2016 National Survey of Children's Health Nonresponse Bias Analysis [Online]. United States Department of Commerce: The Economics and Statistics

BO'LAJAK LIDER SHIFOKORNING KOMPETENSIYASI

Qurbonov J., Kuldasheva M.

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Sog'liqni saqlash tizimining rivojlanishi va samaradorligi, birinchi navbatda, yuksak malakali va liderlik sifatlariga ega bo'lgan shifokorlarni tayyorlashga bog'liq. Zamonaviy tibbiyot murakkab va dinamik rivojlanayotgan soha bo'lib, unda shifokorlardan faqat tibbiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish emas, balki jamoa bilan ishlash, muammolarni yechish, innovatsion yondashuvlarni qo'llash, liderlik va menejment qobiliyatlariga ham ega bo'lishlari talab etiladi. Ushbu tezisda bo'lajak lider shifokorning kompetensiyasining asosiy jihatlari, uni shakllantirishning yo'llari va muhimligi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: kompetensiya, diagnostika, tibbiy bilimlar, kreativ fikrlash, tanqidiy fikrlash, jamoaviy loyihalar, munozaralar.

Bo'lajak lider shifokorning kompetensiyasi – bu uning tibbiy bilim va amaliy ko'nikmalari, shuningdek, liderlik va menejment sifatleri, muloqot qobiliyati, jamoaviy ishga moyilligi, innovatsion fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini o'z ichiga oluvchi integral tushunchadir. Ushbu kompetensiyalar shifokorlarga samarali jamoalarni boshqarish, tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilash, innovatsiyalarni joriy etish va tibbiyot sohasidagi murakkab muammolarni yechish imkonini beradi.

Bo'lajak lider shifokorning kasbiy faoliyatiga doir zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olishi tushuniladi. Shu jumladan sog'liqni saqlash sohasining rivojlanishi, eng avval ushbu jarayonni tashkil etuvchi, boshqaruvchi, nazorat qiluvchi tibbiyot xodimlarining dunyoqarashi va tafakkuridagi o'zgarishlarga ya'ni ularning kasbiy kompetentligiga bevosita bog'liqdir. Tibbiyot bo'lajak lider shifokorning kasbiy mahorati va kompetentligining o'zaro aloqadorlik masalasi bir qator

pedagogik-psixologik adabiyotlarda ochib berilgan. Unda kasbiy mahoratni tug'ma xususiyatlar va fazilatlar bilan shartli belgilanmasligi ta'kidlangan.

Ayni paytda bo'lajak lider shifokorning qobiliyati uning kasbiy bilimi va malakalari, boshqa bir tomondan kasbiy pozitsiyasi va psixologik sifatlar mutanosibligi bilan baholanishi mumkin. Bo'lajak lider shifokorlar kasbiy faoliyatining axloqiy asosida avvalo insoniylik va rahm-shafqat yotadi.

Tibbiyot axloq kodeksida bo'lajak lider shifokorning kasbiy faoliyatiga doir aniq axloqiy ko'rsatmalar berilgan bo'lib, jamiyatdagi hamshiralik kasbining obro'sini oshirish va bo'lajak lider shifokorning rivojlantirishiga katta yordam beradi. Tibbiyotning zamonaviy rivojlanishida hamshiralarga nafaqat ishda yuqori professionallik, balki bemorlar va hamkasblari bilan muloqotda befarqlik, ehtiyotkorlik va samimiyat talab qilinadi. Tibbiyotda bo'lajak lider shifokorlar kasbiy kompetentligining to'liq tuzilmasi motivatsion yo'naltiruvchi bo'g'in bo'lib, rivojlantiruvchi, tuzatuvchi, korreksion va kasbiy maslahat xarakteriga ega bo'lishlari kerak. Shu nuqtai nazardan bo'lajak lider shifokorlar ijtimoiy intellektini rivojlanish jarayonida, bo'lajak lider shifokorga xos bo'lgan pedagogik va psixologik bilimlarni chuqur o'rganib kasbiy" faoliyatida tadbiiq etishi kerak.

Lider shifokorning asosiy kompetensiyalari:

- chuqur tibbiy bilimlar, diagnostika va davolashda zamonaviy metodlarni qo'llash malakalari, tibbiy texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalari.

- jamoaga rahbarlik qilish, jamoaviy ishni tashkil etish, vaqtni samarali boshqarish, resurslarni optimallashtirish, konfliktlarni hal qilish, strategik rejalashtirish.

- bemorlar, hamkasblari va boshqa mansabdor shaxslar bilan samarali muloqot qilish, tinglash va tushunish, ma'lumotni aniq va tushunarli tarzda yetkazish qobiliyati.

- jamoaviy ishga moyillik, jamoa a'zolari bilan hamkorlik qilish, o'zaro hurmat va ishonchni mustahkamlash.

- yangi yondashuvlarni izlash, kreativ fikrlash, muammolarni hal qilishda mustaqil qarorlar qabul qilish, tanqidiy fikrlash.

- tibbiy etika normalariga rioya etish, bemorlarning huquqlarini himoya qilish, mas'uliyat va vijdonlilik.

- yangi bilim va ko'nikmalarni doimiy ravishda o'zlashtirishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlariga qatnashish.

Bo'lajak lider shifokor kompetensiyasini shakllantirishning yo'llari:

- zamonaviy o'quv dasturlari, innovatsion o'qitish metodlari, amaliy mashg'ulotlar, simulyatsion trenajerlar.

- jamoa boshqarishi, konfliktlarni hal qilish, strategik rejalashtirish bo'yicha malaka oshirish.

- shifoxonalarda amaliy tajriba o'tash, turli tibbiyot muassasalarida ishlash, jamoaviy loyihalarda ishtirok etish.

- tajribali shifokorlarning rahbarligi ostida ishlash, ulardan tajriba va bilim olish.

- ilmiy loyihalarda ishtirok etish, ilmiy maqolalar yozish, konferensiyalarda ishtirok etish.

- jamoaviy loyihalar, munozaralar, rolli o'yinlar orqali jamoaviy ish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Bo'lajak lider shifokorlar o'rtasida kelajak kasbi imidjini va muhim kasbiy fazilatlarini shakllantirish uchun birinchi o'quv yilidan boshlab, o'quv jarayoni va darsdan tashqari ishlarni shu maqsadga muvofiq qurish, ta'lim muassasasining barcha ta'lim salohiyatidan maksimal darajada foydalanish zarur. Bo'lajak lider shifokorlarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish uchun eng muhim bo'lgan mavzularga e'tibor qaratib, ma'lum bir tibbiy profil bo'yicha mutaxassisni tayyorlash tizimidagi fanning asosiy vazifalari va o'rnini hisobga olish shart. Shuningdek, talabalarning kasbiy idealini shakllantirish uchun har bir fanning ta'lim salohiyatidan maksimal darajada foydalanish zarur.

O'quv jarayonida professor-o'qituvchilar bo'lajak lider shifokorlarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirishdan tashqari, talabalarning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga hissa qo'shadilar, tanlangan mutaxassislikning mohiyati va ahamiyatini, uning jamiyatdagi salomatlikni mustahkamlashdagi rolini tushunishlari, o'z-o'zini rivojlantirish bo'yicha faol harakatlar olib borishlari hamda o'z-o'zini rivojlantirishga harakat qiladilar.

Shunday qilib, bo'lajak lider shifokorlarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirishda ularda patsientlarga mehr uyg'otuvchi, tanlagan kasbiga qiziqishni kuchaytiruvchi auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar o'tkazish katta ahamiyatga ega. Bunday tadbirlarning o'tkazilishi bo'lajak shifokorlar ongida chuqur iz qoldiradi va ularda to'g'ri tanlovdan g'ururlanish, kasb egallashga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish, zamonaviy jamiyatda talabga ega bo'lish, jamiyatga tez moslashish, o'z kasbini muvaffaqiyatli shakllantirish imkonini beradi.

Xulosa

Bo'lajak lider shifokorning kompetensiyasi – bu uning tibbiy bilim va ko'nikmalari, liderlik sifatleri va boshqa muhim jihatlarini o'z ichiga oluvchi integral tushunchadir. Ushbu kompetensiyalarni shakllantirish orqali, yuqori malakali, samarali va innovatsion yondashuvlarga ega bo'lgan shifokorlarni tayyorlash, sog'liqni saqlash tizimining samaradorligini oshirish va aholi salomatligini yaxshilash mumkin. Bu jarayonda yuqori sifatli tibbiyot ta'limi, zamonaviy o'qitish metodlari va amaliy tajriba muhim rol o'ynaydi.

Adabiyotlar

1. D.I.Axmedova, R.N.Taxirova, O.S. Grunina, I.I. Grunina O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent - 2017-yil. 6-10 betlar.

2. D.A.Sobirova. Social intellekt konsepsiyasining yaratilishi va nazariy asoslari. "Zamonaviy ta'lim", ilmiy-amaliy ommabop jurnali. Toshkent. 2019. №2. - B. 9-18 betlar.

3. D.A.Sobirova. Tibbiyot xodimlari social intellekti ko'rsatkichlari namoyon etilishining gender xususiyatlari.

4. Bojenkina S. A. Madaniyat tarixidagi tibbiyot va pedagogikaning aloqasi. Xalqaro amaliy va fundamental tadqiqotlar jurnali. - 2016-yil. - № 4-1. - 60-62 betlar;

5. Akhmedova. M.T. Narmetova, Y.K. Nurmatova, I.T. Malikova. D.U.K. (2022). Communicative Competence Formation in Future Teachers Based on an Integrated Approach. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 9(4), 54-60 betlar.